

MUSIQA DARSLARINI XALQIMIZ O'TMISH TARIXI BILAN O'ZARO BOG'LIQLIKDA TASHKIL ETISH YO'LLARI VA MEHANIZMLARI

*Niyatqobilova Sevinch. "Musiqqa madaniyati"
talabasi. Tel: +998904948202
sevinch.niyatqobilova.02@bk.ru*

Ilmiy rahbar: *Karimov Saxob. "Musiqqa
madaniyati" fakulteti o'qituvchisi.
saxob_karimov@mail.ru. Tel: +998932262550*

Annotatsiya: *Bugungi kunda tarixiy, madaniy va ma'naviy ahloqiy qadryatlarning keng qatlamlarini qayta idrok etish san'atning sohalarida bo'lganidek, musiqiy san'atda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Asrlar bo'yi ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan musiqiy madaniyatimizni asrash, bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda.*

Mana shu maqsadni amalga oshirishda barcha fanlar qatori musiqqa ta'limi va tarbiyasining ahamiyati beqiyosdir.

Kalit so'zlar: *Xalqimiz, milliy qadryatlarimiz, o'tmish, musiqqa, tarbiya, idrok, o'zbek musiqasi, tarix, san'at, ta'lim, o'quvchi, bilm, malaka, ko'nikma, dars*

Milliy uyg'onish davri deb tan olinayotgan bugungi kunimiz mustaqil O'zbekiston tarixida yangi davrni boshlab berdi. Qisqa davr ichida mamlakatimiz davlat va jamiyat qurulishining mutlaqo yangi siyosiy asoslari yaratilishi bilan birgalikda, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy sohalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Zotan, milliy qadryatlarni yanada yuqori bosqichga ko'tarmasdan turib, yangicha jamiyatni barpo etish mumkin emasligi ayon bo'lib qolmoqda.

Shu sababli xalqimizning o'tmish, ma'naviy me'rosini o'rganish jismoniy va ma'naviy yetuk yangi avlodni tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, milliy qadryatlarimizni, an'alarimizni sevish va qadrlash tuyg'usini kamol toptirish bugungi davrning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Har bir davr o'zida ushbu muammolarni turli qirralarini namoyon etadi. Hozirda matbuot sahifalari, radio, va telekursatuvlarda ham respublikamizda yangi ma'naviy yo'nalishlarning shakllanishi o'z navbatida san'atning barcha sohalariga ham samarali ta'sir

etayotganligi alohida e'tirof etilmoqda. Bugungi kunda tarixiy, madaniy va ma'naviy ahloqiy qadryatlarning keng qatlamlarini qayta idrok etish san'atning sohalarida bo'lganidek, musiqiy san'atda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Milliy tafakkurdagi tub yangilanishlar ma'naviyatimizning asosiy o'zagi bo'lishi va uni ijtimoiy ongning bugungi darajasiga muvofiq yangi talablar asosida baholash zaruriyatini taqozo etmoqda. Bu borada yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda mustaqillik yillaridagi san'at rivojiga berilgan baho sifatida chop etilgan "O'zbekiston san'ati" nomli yirik nashrni misol qilish mumkin.

Asrlar bo'yi ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan musiqiy madaniyatimizni asrash, an'anaviy qo'shiqchilik va milliy musiqa boyligimizdan foydalangan holda bugungi zamon ruhiga mos musiqalar yaratish, jaxon klassik musiqa san'atidan unumli foudalanish, milliy estrada ruhida qo'shiqlar yaratish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda.

Mana shu maqsadni amalga oshirishda barcha fanlar qatori musiqa ta'limi va tarbiyasining ham o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Chunki musiqa san'ati inson qalbiga, ruhiyatiga emotsional ta'siri bilan kuchli tarbiyaviy ta'sirchanlik kasb etadi. Musiqa o'zining tez ta'sirchan kuchi bilan har bir insonda, hususan, o'quvchi yoshlarda keng hissiyot dunyosini, o'zlarini qurshab turgan atrofni, odamlarni, hayotni butun borligi bilan gavdalantirib borishi va unga nisbatan ta'lim munosabatlarini uyg'otishi mumkin. Shuning uchun ham musiqaning tarbiyaviy ahamiyati insonni komillikka yetaklovchi madaniyat va ma'rifatni yanada takomillashtirishdagi kuchi muntazam ravishda oshib bormoqda.

Bugungi kunda musiqa tarbiyasi oldiga qo'yilgan vazifalar o'quvchi yoshlarda barcha qobilyatlarni o'stirish, ularning ijodiy intilishlarini rag'batlantirish bilan bir qatorda o'quvchilarga o'zbek musiqasi bosib o'tgan tarixiy jarayon, uning umuminsoniyat tarixida tutgan o'rni milliy musiqiy qadryatlarimiz bilan tanishtirish, ularga musiqiy –tarixiy bilimlarni berish,

musiqa san'atining tarixi bilan jamiyat taraqqiyotining bog'liqligini tushuntirishdan iborat ekanligini ko'rsatmoqda.

Bu jarayonda o'quvchilarning o'zbek musiqasi bilan tanishtirish, milliy musiqamizning qadimiy davrlarda, Temuriylar davrida qay darajada rivojlanganini, ulug' siymolar va musiqashunoslar nomlarini va ularning musiqa ilmida yaratgan kashfiyotlari hamda uni rivojlantirishdagi hissalarini naqadar muhimligini anglash orqali ularda milliy g'urur, milliy iftihar tuyg'ularni shakllantirishga xizmat qilish lozimdir.

Bir necha ming yillardan buyon xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan, og'izdan-o'g'izga o'tib kelayotgan mumtoz musiqa asarlarimiz, maqomlar, marosim qo'shiqlari, doston qo'shiqlari, yor-yorlar, o'lanlar va boshqa folklor asarlarini milliy qadryatlarimiz sifatida ardoqlab, ularning kelib chiqishi tarixi, qaysi regionga xosligi va ijro uslublari ularni yaratgan va ijro etgan mashhur shaxslar, qadimiy cholg'u sozlarimiz, ularning paydo bo'lishi takomillashishi, raqs san'ati, dostonchilik va boshqa musiqiy bilimlarni yosh avlod ongiga singdirish ularni avvalo vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek ulug' maqsad uchun xizmat qilsa, ikkinchidan: yosh avlodning o'tmish tariximiz davomida yuz bergan voqea va hodisalardan xabardor bo'lishga undan to'g'ri xulosa chiqarishga, saboq olishga undaydi, uchunchidan: yosh avlodni ota bobolarimiz musiqiy merosidan bahramand bo'lishga, ulardan estetik zavq olishga, bu musiqiy asarlar mazmunidan to'g'ri xulosa chiqarishga, shu orqali ularning nafosatini tarbiyalash, kamolga etishiga erishishimiz lozim. Musiqa, xususan, qo'shiqchilik san'ati inson qalbini yumshatib, uni jaholat, yovuzlik kabi inson uchun eng razil hislatlardan tiyilish, bunday salbiy hislatlarga murosasiz bo'lishga undaydi va inson qalbida odamiylik, ezgulik g'amxo'rlik, sahovatlilik, mehribonlik kabi inson uchun ijobiy hislatlar sari undovchi asosiy vosita hisoblanadi. Musiqani yana shunday tushunishimiz lozimki, u inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovushlar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san'at turi ham hisoblanadi.

Shunday ekan bugungi kunda musiqa o'qituvchisi DTS lari talablaridan kelib chiqqani holda musiqa darslarini fanlararo integratsiyalashgan holda tashkil etishi hamda o'quvchi yoshlarimizda o'tmish tariximizdan to'g'ri hulosa chiqarishga, musiqiy me'rosimizdan bahramand bo'lishga, musiqiy asarlar mazmun mohiyatini anglab yetishga undashi maqsadga muvofiq deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Davlat ta'lim standartlari. 2020-yil
2. Maqom asoslari.I.Rajabov.T.:1992-yil
- 3.O'zbek musiqasi tarixi. A Jabborov, S Begmatov, M Azamova. T.:2018-yil